



MAHMUD QOSHG'ARIY MA'NAVIY MEROSIDA TEOLOGIK QARASHLAR.

Bektemirov Shokir Xidirboyevich

Samarqand davlat chet tillar instituti

mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10633714>

Annotatsiya. Ushbu maqolada turkiy xalqlari madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma Mahmud Qoshg'ariyning ma'naviy merosi to'g'risida aks etgan, teologik atamalar, ularning ma'nosi, qo'llanishi to'g'risida ayrim fikr va mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: "Devonu lug'oti-turk", tangri, bajat, subuzg'an, turkiy til, etnik va etnografik nomlar, izohli lug'at, teologiya, qonuqi, bitik.

Mustaqillik yillarida yurtimizda mutafakkirlar ma'naviy merosini o'rganish, ularni o'zlashtirish, yangi davr sivilizatsiyasi uchun yangicha ilmiy-nazariy uslub sifatida foydalanish orqali yosh avlodni barkamol bo'lib ulg'ayishida asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bu borada buyuk mutafakkir Mahmud Qoshg'ariyning hayoti va faoliyati, ma'naviy-merosini o'rganish va keng targ'ib qilish orqali yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga mos yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash amaliy ahamiyatga ega. Buyuk alloma Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari nafaqat o'z davrining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotini, balki turkiy so'zlar lug'atini o'zida mujassam etgan qomusiy asardir. XX asr boshlarida Turkiyaning Diyorbakir shahrida kitob do'konidan kitobxon Ali Amiriy tomonida qo'lyozma kitob sotib olingan olingan va keyinchalik ma'lum bo'lishicha ushbu qo'lyozma kitob turkiy tillar etimologiyasi lug'ati Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari bo'lib chiqdi. Ali Amiriy qo'lyozmani uzoq mutoala qilib: "Kitob oldim, uyga keldim, emak-ichmakni unutdim. Bu kitobga haqiqiy qiymat berilmak lozim bo'lsa, bu jahonning xazinalari kifoya qilmas", deb baho bergan ekan. Bu qo'lyozma asarning qimmatli tomoni shundaki "Devonu lug'otit turk"ning Mahmud Qoshg'ariy o'z qo'li bilan yozilgan asl nusxasidan ko'chirilgan edi. YUqoridagi kitob asar yozilganidan so'ng salkam ikki asar o'tgach, XIII asr birinchi yarmida qo'lyozma usulida ko'chirilgan. Qo'lyozma sotib olinganda 319 varaqli katta bir jildan iborat, varaqlari yirtilib ketgan, na boshi va na oxiri bor"¹ edi. Ali Amiriy asarni Rifat nomli o'qituvchiga topshiradi va bu asar Turkiyaning Istanbul shahrida ko'p nusxada nashr etiladi. SHu tariqa turkiy olamga no'malum bo'lgan Mahmud Qoshg'ariyning lug'ati jahon

¹ Хасанов Х. Сайёҳ олимлар. Тошкент.: "Ўзбекистон", 1981.-Б.116





turkshunoslariga ma'lum bo'ldi va dunyo olimlari Mahmud Qoshg'ariy birinchi turkshunos olim sifatida tan oldi. Ta'kidlash kerakki, tez orada "Devonu lug'otit turk" asari mashhur sharqshunos olim Karl Brokkelman tomonidan 1928 yilda Leypsigda nemis tilida, 1934-1943 yillarda Turkiya tilshunoslari asoschilaridan biri Besim Atalay turk tiliga tarjima qildi².

Mamlakatimiz olimlaridan Solih Mutallibov ilmiy faoliyatini aynan "Devonu lug'otit turk" asarini o'zbek tiliga tarjima qilishdan boshladi va qisqa davr ichida ya'ni 1960-1963 yil oralig'ida uch jildini tarjima qildi va uni ilmiy tadqiq qildi. Mashhur turkolog olim A.N.Kononovning fikriga ko'ra, alloma "Mahmud Koshg'ariy birinchi turkolog-ensiklopedistdir³. M.Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida o'z davrida turkiy urug'lar tilida amalda mavjud bo'lgan so'zlarning va o'zidan avvalgi iste'molda bo'lgan so'zlarini etimologiyasini, xususiyatlarini izohlangan allomadir. Ana shuning uchun hamundan bugun turkiy olamning barcha soha olimlari beminnat foydalanib kelishmoqda⁴. "Devonu lug'otit turk" asari sakkiz bobdan iborat bo'lib, qadim turk alifbosi, fonetik qonuniyatlar, orfografik qoidalar, etti ming besh yuzdan ortiq turkiy so'z va iboralar tushuntirilib, o'z davrida amaldagi turkiy adabiy til va turkiy shevalarni qamrab olgan. "Devonu lug'oti-t-turk" asarida turkiy xalqlarning yashash joylari, turkiy xalqlarining tarixi, geografiyasi, tabiati, etnogenezi, etnografiyasi, she'riyati, xalq og'zaki ijodiga doir ma'lumotlar ilmiy-falsafiy asosda yoritib o'tilgan. SHuningdek asarda, turklarning tarixiy va afsonaviy qahramonlar, urug'lar va qabilalari, diniy tushunchalariga oid oid ma'lumot keltirilgan. Jumladan, allomaning ilmiy merosidan teologik tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladigan atamalarni quyidagicha ta'riflangan. Ushbu teologik atamalar, turkiy xalqlar diniy tafakkurining islomga qadar keng bo'lganligidan dalolat beradi. Jumladan: tēngri – ulug' tangri (YAratuvchi), kecha-kunduz ulug' Tangriga ibodat qil, yo'ldan ozib adashma. Xudodan qo'rq, undan uyal, undan qo'rqib, o'ynashdan saqlan. SHuningdek, asarda tēngri atamasining boshqacha ma'nolari haqida yoritib o'tiladi: "tangri" – osmon; "tangri" – katta xudo halok qilgur kofirlar osmonni tēngri deydilar, ular ko'zlariga katta ko'ringan har narsani tēngri deb ataydilar. Ular bilag'on odamni tēngrigān deb atashlari ham shundandir. Bularning xatolaridan xudodan panoh

² С.Рустамора. Махмуд Қошғарий ва унинг "Девону луғотит турк" асари // Адабиёт кўзгуси. – Т.: "Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти", 1996. № 2, - Б.124,125

³ Кононов А.Н. Махмуд Кашгарский и его "Дивану луғат ит-турк"//Советская тюркология. 1972. №1. - С.3-17.

⁴ Худойбердиев Ж. Махмуд Қошғарий ҳаёти ва "Девону луғотит турк" асарининг ўрганилиши. – Тошкент, 2010.





so'raymiz⁵. Asarda, "Təngri məni ag'irladi" jumlasida keltirilgan, ya'ni Yaratgan meni siyladi, qadirladi ma'nosida⁶. Alloma asarda turkiy qavmlarning yigirmatasi haqida ma'lumotlar keltirib, arg'ular va o'g'uz qabilalarida "Tangri" o'rnida "bajat" so'zini qo'llanishini qayd etgan.⁷ Asarda, "jalawach"⁸ – payg'ambar, "tabug"⁹- Yaratganga toat qilish, xizmat qilish, bitik - tumor¹⁰, öz qonuqi - ruh¹¹, subuzg'an¹² - ibodatxona (musulmon bo'lmaganlarning ibodatxonasi, mozori), tēzgindi¹³ – haj, safar, ziyorat, tin¹⁴ – ruh, jon, nafas kabi atamalar uchraydi.

Asarda ma'nolari izohlangan teologiyaga oid so'zlar esa islomga qadar bo'lgan davlarda turkiy xalqlari diniy tafakkurining rivojlanganligidan dalolat berib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кононов А.Н. Махмуд Кашгарский и его "Дивану луғат ит-турк" // Советская тюркология. 1972. №1. - С.3-17.
2. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. III том, 1963. – Б. 387-388.
3. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. I том. - Тошкент: "Фан", 1960.-Б.354.
4. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. II том, 1961. – Б.281.Худойбердиев Ж. Махмуд Қошғарий ҳаёти ва "Девону луғотит турк" асарининг ўрганилиши. – Тошкент, 2010.

⁵ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. III том, 1963. – Б. 387-388

⁶ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. I том. - Тошкент: "Фан", 1960.-Б.87.

⁷ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. III том, 1963. – Б.186.

⁸ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. III том, 1963. – Б.54.

⁹ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. I том. - Тошкент: "Фан", 1960.-Б.354.

¹⁰ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. I том. - Тошкент: "Фан", 1960.-Б.366.

¹¹ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. I том. - Тошкент: "Фан", 1960.-Б.181.

¹² Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. I том. - Тошкент: "Фан", 1960.-Б.471-472.

¹³ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. II том, 1961. – Б.281.

¹⁴ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. I том. - Тошкент: "Фан", 1960.-Б.326.





5. С.Рустамора. Маҳмуд Қошғарий ва унинг “Девону луғотит турк” асари // Адабиёт кўзгуси. – Т.: “Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1996. № 2, - Б.124,125
6. Худойбердиев Ж. Маҳмуд Қошғарий ҳаёти ва “Девону луғотит турк” асарининг ўрганилиши. – Тошкент, 2010.
7. Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар. Тошкент.: “Ўзбекистон”, 1981.-Б.116

